**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**JO‘RAYEV BAHODIRJON INOMJON O‘G‘LI**

# BOSHQARUV FUNKSIYALAR TURLI CHEGARALANISHGA EGA HOLLAR UCHUN II–STRATEGIYA VA UNING TATBIQLARI

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**UDQ: 517.977.5/.978.4**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**JO‘RAYEV BAHODIRJON INOMJON O‘G‘LI**

# BOSHQARUV FUNKSIYALAR TURLI CHEGARALANISHGA EGA HOLLAR UCHUN II–STRATEGIYA VA UNING TATBIQLARI

**01.01.02 – Differensial tenglamalar va matematik fizika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/FM910 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» ta'lim axborat tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Samatov Baxrom Tadjiaxmatovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Apakov Yusupjon Pulatovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Mamadaliyev Numanjon**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti |

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.FM.05.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «7» 09 soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99873) 244-44-02, faks: (+99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (363 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «23» avgust kuni tarqatildi.
(2024 yil «23» 08 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi).

**A.K.Urinov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**I.U.Xaydarov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.n., dotsent

**E.T.Karimov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida ilmiy-amaliy izlanishlar shiddat bilan rivojlanayotganligi sababli ko‘plab amaliy masalalar va murakkab sistemalarni boshqarishni o‘rganish, zamonaviy matematikaning muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan boshqaruv jarayonlarining matematik nazariyasini tadqiq etish va qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Bunday masalalarni o‘rganish zaruriyati matematikaning yangi sohasi, ya’ni dinamik o‘yinlar nazariyasida yangi usullarni ishlab chiqishni va qarama-qarshi maqsadli iqtisodiy va texnik jarayonlarni matematik modellarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, bu nazariya ikki katta qismga, ya’ni diskret va differensial o‘yinlar nazariyalariga bo‘lingan holda qarama-qarshi boshqaruvli jarayonlarni tadqiq qilish orqali boshqaruvlari aralash chegaralanishga ega bo‘lgan quvish-qochish masalalarini harbiy, axborot texnologiyalari, tibbiyot, sug‘urta moliyasi kabi sohalarda foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda differensial o‘yinlar nazariyasi va uning turli sohalarga qo‘llanishini kengaytirish maqsadida obyektlarning boshqaruv parametrlari turli chegaralanishlarga ega dinamik o‘yin masalalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, differensial o‘yinlar nazariyasining o‘yinchilar boshqaruvlari turli chegaralanishli quvish-qochish muammolarini boshqa sohalarning turli masalalariga tatbiq qilish, qarama-qarshi maqsadli boshqaruv jarayonlarining matematik modellarini qurish, ular bilan bog‘liq masalalarni yechish uchun o‘yinchilarning optimal strategiyalarini qurish va ular yordamida yangi yetarli yechilish shartlarini aniqlash, R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” o‘yinini hal etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental tadqiqotlarning ilmiy va amaliy qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb sohalariga e’tibor qaratish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, “dinamik sistemalar va ularning tatbiqlari, differensial tenglamalar va ularning tatbiqlari, algebra va uning tatbiqlari, chiziqsiz sistemalarni matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi, tibbiy-biologik informatika, stoxastik analiz” kabi ustuvor yo‘nalishlari bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematik olimlarning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, boshqariluvchi sistemalar va dinamik o‘yinlar nazariyalarini rivojlantirish maqsadida boshqaruvlari turli tipdagi cheklovlarga ega differensial o‘yinlarda ziddiyatli masalalarning optimal yechimlarini aniqlaydigan strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-4387 qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Differensial o‘yinlar nazariyasi 1950-yillarda amerikalik olim R.Ayzeks tomonidan tizimli o‘rganila boshlangan va 1965-yilga kelib, uning “Differensial o‘yinlar” nomli monografiyasi chop etilgan. Bu monografiyada juda ko‘plab differensial o‘yin masalalari tadqiq qilingan bo‘lib, keyingi izlanishlar uchun ham bir qator yangi masalalar taklif qilingan. Bu masalalar dunyo olimlari tomonidan shu kungacha keng o‘rganilmoqda. Bundan tashqari, L.S.Pontryagin, N.N.Krasovskiy, R.E.Bellman, A.Friedman, W.H.Fleming, L.D.Berkovitz, R.J.Elliot, A.Bryson, S.Baron, N.J.Kalton, Y.Ho, E.F.Mishenko, L.A.Petrosyan, A.A.Azamov, N.Yu.Satimov, B.N.Pshenichniy, A.I.Subbotin va boshqa matematik olimlar differensial o‘yinlar nazariyasining fundamental rivojlanishida o‘zlarining katta hissalarini qo‘shishgan.

R.Ayzeks monografiyasida keltirilgan qiziqarli masalalardan biri “Qutulish chizig‘i” differensial o‘yin masalasini birinchi bo‘lib L.A.Petrosyan tomonidan sodda harakatli differensial o‘yin uchun parallel yaqinlashish usuli yordamida yechilgan va bu usul parallel quvish strategiyasi (qisqacha, П-strategiya) deb ham nomlanadi. Keyinchalik esa A.A.Azamov tomonidan ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchiga ega differensial o‘yin uchun “Qutulish chizig‘i” masalasining analitik yechimi keltirilgan. П-strategiya g‘oyalari va L.S.Pontryaginning birinchi to‘g‘ri metodidan foydalanib, A.A.Chikriy П-strategiya usulini chiziqli sistemalar uchun umumlashtirgan. Keyinchalik, П-strategiya ko‘plab differensial o‘yinlarda quvish usullari rivojlanishining asosi bo‘lib xizmat qildi (B.N.Pshenichniy, B.B.Rixsiyev, B.T.Samatov, N.N.Petrov, A.S.Bannikov, A.I.Blagodaskix, N.L.Grigorenko va boshqalar). Differensial o‘yinlar nazariyasida boshqaruvlari geometrik, integral, Gronuoll va turli chegaralanishlar qo‘yilgan hollarda sodda, inersion va ko‘p quvlovchili differensial o‘yin masalalari ko‘rilgan (O.Hajek, N.N.Petrov, N.Yu.Satimov, A.N.Dar’in, D.V.Kornev, A.B.Kurjanskiy, N.Yu.Lukoyanov, A.Sh.Kuchkarov, M.To‘xtasinov, B.T.Samatov, N.A.Mamadaliyev, G.I.Ibragimov, M.Sh.Mamatov).

Bugungi kunda, respublikamizda N.Yu.Satimov tomonidan asos solingan differensial o‘yinlar nazariyasi ilmiy maktabiga A.A.Azamov rahbarlik qilmoqda. Ushbu ilmiy maktab vakillari B.B.Rixsiyev, M.To‘xtasinov, B.T.Samatov, A.Sh.Kuchkarov, N.A.Mamadaliyev, G.I.Ibragimov, M.Sh.Mamatovlar tomonidan optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyalari bo‘yicha muhim natijalarga erishilmoqda. Xususan, B.T.Samatov parallel yaqinlashish strategiyasidan foydalanib o‘yinchilarning boshqaruvlariga integral, chiziqli, Gronuoll, Langenhop va aralash chegaralanishlar qo‘yilgan hollarda sodda harakatli differensial o‘yinlarni tadqiq qildi. N.A.Mamadaliyev o‘yinchilar boshqaruvlariga asosan, integral cheklovlar qo‘yilgan hollar uchun kechikish parametriga ega chiziqli differensial o‘yinlarning quvish masalalarini o‘rgangan. Hozirgi kungacha boshqaruvlari turli chegaralanishli differensial o‘yinlar yetarli darajada o‘rganilmagan bo‘lib, bu masalalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur dissertatsiya ishi boshqaruv funksiyalari geometrik, Gronuoll, integral va turli chegaralanishli, sodda va inersion harakatli differensial o‘yinlarda quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Differensial tenglamalar va uning turdosh matematik sohalarning dolzarb muammolari” dasturi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** o‘yinchilarning boshqaruvlariga geometrik, Gronuoll, integral va turli chegaralanishlar qo‘yilgan hollarda quvish-qochish masalalari hamda R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” differensial o‘yin masalasini hal qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

o‘yinchilar boshqaruvlariga turli chegaralanishlar (geometrik-Gronuoll, Gronuoll-geometrik, integral-Gronuoll) qo‘yilgan sodda harakatli differensial o‘yin uchun quvish-qochish masalasi yechilishini kafolatlaydigan yetarli shartlarni aniqlash;

o‘yinchilar boshqaruvlari umumlashgan tipidagi integral chegaralanishga ega sodda harakatli differensial o‘yinda quvish masalasining yechilishini kafolatlaydigan yetarli shartlarni topish;

quvlovchining boshqaruviga chiziqsiz, qochuvchining boshqaruviga esa chiziqli integral chegaralanishlar qo‘yilgan sodda harakatli differensial o‘yinda quvish-qochish masalasi yechimini aniqlash;

quvlovchining boshqaruviga integral qochuvchining boshqaruviga esa geometrik chegaralanishlar qo‘yilgan holda ikkinchi tartibli differensial o‘yin uchun quvish-qochish masalasining yechilishini kafolatlaydigan yetarli shartlarni topish hamda R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasini hal qilish.

**Tadqiqotning obyekti** sodda va inersion harakatli differensial o‘yinlarda quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalaridan iborat.

**Tadqiqotning predmeti** o‘yinchilarning boshqaruvlari geometrik, Gronuoll, integral va turli chegaralarishlarga ega hollar uchun quvish, qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarining yechimlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida quvish masalalarini hal qilish uchun yechim beruvchi funksiyalar metodi yordamida parallel quvish strategiyasi qo‘llanilgan, qochish masalalarini hal qilish uchun esa teskari yo‘nalish bo‘yicha qochish strategiyasi tatbiq qilingan. Shuningdek, differensial tenglamalar, optimal boshqaruv, funksional va qavariq analiz nazariyalaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘yinchilar boshqaruvlariga turli chegaralanishlar (geometrik-Gronuoll, Gronuoll-geometrik, integral-Gronuoll) qo‘yilgan sodda harakatli differensial o‘yinda quvish-qochish masalalari quvlovchi uchun parallel quvish metodi bilan, qochuvchi uchun esa yo‘nalishli boshqaruv funksiyasi yordamida yechilgan;

o‘yinchilar boshqaruvlari umumlashgan tipidagi integral chegaralanishga ega sodda harakatli differensial o‘yinda parallel quvish strategiyasi yordamida quvish masalasi yechilishini kafolatlaydigan yetarlilik shartlari topilgan;

quvlovchining boshqaruviga chiziqsiz, qochuvchining boshqaruviga esa chiziqli integral chegaralanishlar qo‘yilgan differensial o‘yinlarda quvish-qochish masalasining yechimi quvlovchi uchun parallel quvish metodi bilan, qochuvchi uchun esa yo‘nalishli boshqaruv funksiyasi yordamida isbotlangan;

quvlovchining boshqaruviga integral qochuvchining boshqaruviga esa geometrik chegaralanishlar qo‘yilgan holda ikkinchi tartibli differensial o‘yin uchun quvish-qochish masalasining yechilishini kafolatlaydigan yetarlilik shartlari topilgan va R.Ayzeksning “Qutulish chizig‘i” masalasi hal qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyasi asoslarining amaliy tatbiqlariga bevosita aloqadorligi nuqtayi nazaridan turli cheklovlarga ega qarama-qarshi maqsadli jarayonlarni boshqarishning matematik modellari sifatida boshqaruvlari geometrik, Gronuoll, integral va turli chegaralanishli quvish-qochish masalalari hal qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, funksional va matematik analiz, qarama-qarshi boshqaruvli dinamik sistemalarda quvish-qochish masalalariga doir teoremalardan foydalanilgan. Olingan natijalar zamonaviy matematikaning qat’iy yondashuvlari bo‘yicha isbotlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyalariga asoslanib, sodda va inersion harakatli dinamik sistemalar bilan ifodalangan ziddiyatli boshqaruv masalalarini yechishning optimal usullarini takomillashtirish va ularni amaliyotga joriy qilishga oid muammolarni samarali hal qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, dinamik o‘yinlar nazariyasida boshqaruvlarga turli chegaralanishlar qo‘yilgan hollarda optimal strategiyalarning qurilishi va resurs boshqaruvlari uchun optimal taqsimotning berilishi hamda ularning sonli algoritmlarini ishlab chiqish orqali texnik, iqtisodiy-moliyaviy va ekologik sohalarga tatbiq etish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshqaruv funksiyalar turli chegaralanishga ega hollar uchun Π-strategiya va uning tatbiqlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

boshqaruvlari chiziqsiz va chiziqli integral chegaralanishlarga ega differensial o‘yinda quvish-qochish masalalarini yechishda olingan natijalardan №OT-F4-(36+32) raqamli “Matematik fizika va optimal boshqaruv masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish. Toq tartibli xususiy hosilali tenglamalar uchun noklassik boshlang‘ich va spektral masalalar va ularning tadbiqlari” mavzusidagi fundamental loyihada boshqaruv funksiyalari turli chegaralanishli qarama-qarshi boshqaruvli dinamik sistemalarda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 19-yanvardagi 04/11-671-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, optimal boshqaruv masalalarini yechishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularni sonli amalga oshirishda kelib chiqadigan chiziqsiz boshqaruv sistemalar uchun yetarli shartlar aniqlash imkonini bergan;

boshqaruvlari turli chegaralanishli sodda va inersion harakatli differensial o‘yinlarda quvish-qochish va “Qutulish chizig‘i” masalalarini yechishda olingan natijalardan UZB-Ind-2021-87-sonli “Li simmetriyasi tahlili, giperbolik sistemalarning Lyapunov bo‘yicha turg‘unligini tahlil qilish va modellashtirish” mavzusidagi fundamental loyihada turli chegaralanishli ziddiyatli jarayonlarni boshqarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2024-yil 26-fevraldagi 04/11-1301-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, giperbolik tenglamalar sistemasi uchun aralash masalaning aniq yechimlari va eksponensial turg‘un sonli yechimini topish uchun Li simmetriyasi tahlili va adekvat hisoblash modelini ishlab chiqish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy natijalari 13 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 7 tasi xalqaro va 6 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 8 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 3 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

I-bob “$GGr$, $GrG$ **va** $IGr-$**chegaralanishlarga ega hollar uchun** $\Pi-$**strategiya**“ deb nomlanadi va o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari geometrik, integral va Gronuoll tipidagi chegaralanishlarni qanoatlantiradigan hol uchun sodda quvish-qochish differensial o‘yinlarga bag‘ishlangan.

$\mathbb{R}^n$ fazoda mos ravishda $P$ quvlovchi va $E$ qochuvchi deb nomlangan ikkita boshqariladigan o‘yinchilar berilgan bo‘lsin. Agar $x$ vektorni quvlovchining holati va $y$ vektorni esa qochuvchining holati deb olsak, u holda, ularning harakatlari quyidagi tenglamalar bo‘yicha hosil bo‘ladi:

$$P:\dot{x}=u,\ \ x(0)=x_0, \qquad E:\dot{y}=v,\ \ y(0)=y_0, \tag{1}$$

bu yerda $x,y,x_0,y_0,u,v\in\mathbb{R}^n$, $n\geq 1$; $x_0$ va $y_0$ o‘yinchilarning boshlang‘ich holatlari va bu vektorlar uchun $x_0\neq y_0$ munosabat bajarilishi talab qilinadi; mexanik nuqtayi nazardan, $u$ va $v$ tezlik vektorlarini ifodalaydi va ular mos ravishda $u(\cdot):\left[0;\infty\right)\to\mathbb{R}^n$ va $v(\cdot):\left[0;\infty\right)\to\mathbb{R}^n$ o‘lchovli funksiyalar sifatida tanlanadigan o‘yinchilarning boshqaruv parametrlari hisoblanadi.

Ushbu bobda, asosan, $P$ quvlovchi va $E$ qochuvchining boshqaruv funksiyalariga quyidagi 4 ta tipdagi chegaralanishlarni joriy qilamiz.

1) $G$*-chegaralanish.* Bu tipdagi chegaralanish o‘yinchining dinamik imkoniyatining cheklanganlik xususiyatini ifodalaydi (masalan: quvvatga nisbatan chegaralanish). Optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyalarida $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ boshqaruvlarga umumiy holda $G$-chegaralanishlar quyidagi ko‘rinishlarda beriladi:

$$\left|u(t)\right|\leq\alpha,\quad t\geq 0, \tag{2}$$

$$\left|v(t)\right|\leq\beta,\quad t\geq 0, \tag{3}$$

bu yerda $\alpha$ musbat son va $\beta$ nomanfiy son. Aytish kerakki, $\mathbb{R}^n$ fazoda (2) va (3) da va keyingi chegaralanishlarda $u(t)$ va $v(t)$ larning normalari sifatida odatdagi Yevklid normalarini nazarda tutamiz, ya’ni $\left|u(t)\right|=\sqrt{u_1^2(t)+u_2^2(t)+...+u_n^2(t)}$ va $\left|v(t)\right|=\sqrt{v_1^2(t)+v_2^2(t)+...+v_n^2(t)}$, bu yerda $u_1(t),u_2(t),...,u_n(t)$ $-$ $u(t)$ ning koordinatalari, va $v_1(t),v_2(t)...,v_n(t)$ $-$ $v(t)$ ning koordinatalaridir. Bunda va keyinchalik, $U_G$ (mos ravishda, $V_G$) orqali (2) (mos ravishda, (3)) $G$-chegaralanish bajariladigan barcha $u(\cdot)$ (mos ravishda, $v(\cdot)$) o‘lchovli funksiyalar sinfini ifodalaymiz.

2) $Gr$*-chegaralanish.* Bu turdagi chegaralanish analitik tarzda Gronuoll integral tengsizligidan hosil qilinadi va muayyan ma’noda $G$-chegaralanishning umumlashtirilgan ko‘rinishidir. Hayotiy jarayonlarda $Gr$-chegaralanish vaqtga bog‘liq holda o‘yinchining cheklangan va ortib borayotgan xossalarini ko‘rsatadi.

Differensial o‘yinlar nazariyasida $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ boshqaruvlarga $Gr$-chegaralanishlar quyidagi ko‘rinishlarda beriladi:

$$\left|u(t)\right|^2 \le \rho^2 + 2k\int_0^t \left|u(s)\right|^2 ds,\ \ t \ge 0, \tag{4}$$

$$\left|v(t)\right|^2 \le \sigma^2 + 2k\int_0^t \left|v(s)\right|^2 ds,\ \ t \ge 0, \tag{5}$$

bu yerda $\rho$, $\sigma$, $k$ musbat sonlar. Keyingi o‘rinlarda, (4) (mos ravishda, (5)) $Gr$-chegaralanishga mos keluvchi barcha $u(\cdot)$ (mos ravishda, $v(\cdot)$) o‘lchovli funksiyalar oilasini $U_{Gr}$ (mos ravishda, $V_{Gr}$) bilan tasvirlaymiz.

3) $I$*-chegaralanish.* Umuman olib qaraganda, $I$-chegaralanishlar $G$-chegaralanishlarga nisbatan ko‘proq o‘rganiladigan va tatbiq qilinadigan hisoblanadi. Chunki integral tipidagi chegaralanishlar bevosita o‘yinchi resursining (masalan, yoqilg‘i, quvvat) cheklanganlik xususiyatini bildiradi. Differensial o‘yin va optimal boshqaruv masalalarida $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ boshqaruvlarga $I$-chegaralanishlar asosan quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

$$\int_0^\infty \left|u(s)\right|^2 ds \le \rho_0,\ \ t \ge 0, \tag{6}$$

$$\int_0^\infty \left|v(s)\right|^2 ds \le \sigma_0,\ \ t \ge 0, \tag{7}$$

bu yerda $\rho_0$ va $\sigma_0$ musbat sonlar va ularning har biri mos ravishda $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ boshqaruvlar uchun resurslarning maksimal miqdorini bildiradi.

Endi $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ boshqaruvlarga (6)-(7) $I$-chegaralanishlarning yangicha tiplari sifatida quyidagi eksponensial ko‘rinishlardagi integral chegaralanishlarni kiritaylik:

$$\int_0^t \left|u(s)\right|^2 ds \le \rho_0 e^{kt},\ t \ge 0, \tag{8}$$

$$\int_0^t \left|v(s)\right|^2 ds \le \sigma_0 e^{kt},\ \ t \ge 0, \tag{9}$$

bu yerda $k$ aynan (4)-(5) da berilgan son. (6)-(7) dan (8)-(9) ning farqli bo‘lishi uchun (8) ni (yoki (9) ni) $I_k^+$*-chegaralanish* deyiladi. Fizik nuqtayi nazardan, (8) (yoki (9)) $I_k^+$-chegaralanish har bir $t \ge 0$ vaqtdagi o‘yinchining boshlang‘ich resursi eksponensial tarzda ortib borishini bildiradi. Keyingi o‘rinlarda, $U_I^+$ (mos ravishda, $V_I^+$) (8) (mos ravishda, (9)) $I_k^+$-chegaralanishni qanoatlantiruvchi barcha $u(\cdot)$ (mos ravishda, $v(\cdot)$) o‘lchovli funksiyalar oilasini tasvirlaydi.

Aniqlik va soddalik uchun (1), (2), (5) o‘yinni “$GGr - o$‘*yin*” deb, (1), (4), (3) o‘yinni “$GrG - o$‘*yin*” deb, (1), (8), (5) o‘yinni esa “$IGr - o$‘*yin*” deb ataymiz.

**1-ta'rif.** $u(\cdot)\in U_G$ va $v(\cdot)\in V_{Gr}$ ($u(\cdot)\in U_G$ va $v(\cdot)\in U_{Gr}$ yoki $u(\cdot)\in U_I^+$ va $v(\cdot)\in V_{Gr}$) o'lchovli funksiyalarga $GGr-$o'yinda ($GrG-$o'yinda yoki $IGr-$o'yinda) mos ravishda $P$ quvlovchi va $E$ qochuvchining *joiz boshqaruvlari* deyiladi.

Faraz qilaylik, $U$ (mos ravishda, $V$) quvlovchining (mos ravishda, qochuvchining) yuqorida keltirilgan $U_G$, $U_{Gr}$, $U_I^+$ (mos ravishda, $V_G$, $V_{Gr}$, $V_I^+$) boshqaruvlar sinflaridan biri bo'lsin.

**2-ta'rif.** $(x_0, u(\cdot))$ (yoki $(y_0, v(\cdot))$) juftlik uchun, bu yerda $u(\cdot)\in U$ (yoki $v(\cdot)\in V$) (1) ning $x(t) = x_0 + \int_0^t u(s)ds$ (yoki $y(t) = y_0 + \int_0^t v(s)ds$) yechimi barcha $t\ge 0$ uchun $P$ quvlovchi (yoki $E$ qochuvchining) *harakat trayektoriyasi* deyiladi.

Bu yerda $P$ quvlovchining maqsadi $E$ qochuvchini tutish, ya'ni $x(t) = y(t)$ tenglikka erishish (quvish masalasi) va $E$ qochuvchi esa $P$ quvlovchi bilan uchrashishdan saqlanishga harakat qiladi (qochish masalasi), ya'ni barcha $t\ge 0$ uchun $x(t)\ne y(t)$ tengsizlikni saqlashga harakat qiladi va aksincha holatda esa iloji boricha uchrashish vaqtini kechiktirishga harakat qiladi.

$B(c,r)$ markazi $c$ nuqtada bo'lgan $r$ radiusli sharni ifodalasin.

**3-ta'rif.** $IGr-$o'yinda $\mathbf{u}: V\times[0,+\infty)\to U$ funksiyaga $P$ *quvlovchining strategiyasi* deyiladi agar: 1) $[0,t]$ oraliqda ixtiyoriy $v(\cdot)\in V$ uchun $\mathbf{u}(v(\cdot),t)\in U$ bajarilsa. Bunda $\mathbf{u}(v(\cdot),t)$ ni $\mathbf{u}(\cdot)$ *strategiyaning amalga oshirilishi* deyiladi; 2) ixtiyoriy $v_1(\cdot)$, $v_2(\cdot)\in V$ va har bir $t\in[0,+\infty)$ uchun $v_1(s) = v_2(s)$ tenglik $[0,t]$ oraliqdagi deyarli barcha qiymatlarda bajarilsa, u holda, $u_1(s) = u_2(s)$ munosabat $[0,t]$ oraliqdagi deyarli barcha qiymatlarda o'rinli bo'lsa, bu yerda $u_i(\cdot) = \mathbf{u}(v_i(\cdot),t)$, $i = 1,2$.

Keyingi ta'rifni bayon qilish uchun dastlab quyidagi yangi ifodalarni kiritamiz: $z = x - y$, $z_0 = x_0 - y_0$.

**4-ta'rif.** $\mathbf{v}:[0,+\infty)\to V$ funksiyaga $E$ *qochuvchining strategiyasi* deyiladi agar $\mathbf{v}(t)$ funksiya $t\ge 0$ bo'yicha Lebeg o'lchovli bo'lsa.

**5-ta'rif.** $\mathbf{u}(\cdot)$ strategiya $T(\mathbf{u})$ vaqt paytida *tutishni kafolatlaydi* deymiz, agar ixtityoriy $v(\cdot)\in V$ boshqaruv uchun biror $\tau\in[0,T(\mathbf{u})]$ vaqtda $x(\tau) = y(\tau)$ tenglik o'rinli bo'lsa.

**6-ta'rif.** $\mathbf{v}(\cdot)$ boshqaruv $[0,\infty)$ vaqt oralig'ida *qochishni kafolatlaydi* deymiz, agar ixtiyoriy $u(\cdot)\in U$ boshqaruv va barcha $t\in[0,\infty)$ uchun $x(t)\ne y(t)$ munosabat bajarilsa.

**1-lemma.** (Gronuoll) Agar $\left|\omega(t)\right|^2 \le \chi^2 + 2l\int_0^t \left|\omega(s)\right|^2 ds$ bo‘lsa, u holda, $\left|\omega(t)\right| \le \chi e^{lt}$ o‘rinli, bu yerda $\omega(t)$, $t \ge 0$, o‘lchovli funksiya va $\chi$, $l$ nomanfiy sonlar.

Quvish masalasini yechish uchun quvlovchi ayni $t \ge 0$ vaqtdagi $v(t)$ ning qiymatlarini va $x(t)$, $y(t)$ holatlarni bilishi yetarli bo‘ladi.

**7-ta’rif.** $\mathbf{u}_{GGr}(v) = v - \lambda_{GGr}(v)\xi_0$ funksiyani $[0,\theta]$ vaqt oralig‘ida $GGr$-quvish o‘yinida quvlovchining $\Pi_{GGr}$-*strategiyasi* deb ataymiz, bu yerda

$$\lambda_{GGr}(v) = \langle v, \xi_0\rangle + \sqrt{\langle v, \xi_0\rangle^2 + \alpha^2 - \left|v\right|^2},\ \xi_0 = z_0 / \left|z_0\right|,\ \theta = \frac{1}{k}\ln(\alpha / \sigma) \quad \text{va} \quad \langle v, \xi_0\rangle$$

ifoda $v$ va $\xi_0$ ning skalyar ko‘paytmasini bildiradi. $\lambda_{GGr}(v)$ funksiyani *hal qiluvchi funksiya* deyiladi.

**2-lemma.** Agar $\alpha > \sigma$, $\left|z_0\right| \le \Theta$ shartlar o‘rinli bo‘lsa, u holda, $[0,\theta]$ oraliqda $e^{kt} = At + B$ tenglamaning $t = T_{GGr}$ musbat ildizi mavjud, bu yerda

$$\theta = \frac{1}{k}\ln\frac{\alpha}{\sigma},\ \Theta = \frac{1}{k}\left(\sigma - \alpha\left(1 - \ln\frac{\alpha}{\sigma}\right)\right),\ A = \frac{\alpha k}{\sigma},\ B = 1 - \frac{\left|z_0\right|k}{\sigma}.$$

**1-teorema.** Agar $\alpha > \sigma$ va $\left|z_0\right| \le \Theta$ bo‘lsa, u holda, $GGr$-quvish o‘yinida $\Pi_{GGr}$-strategiya $[0, T_{GGr}]$ vaqt oralig‘ida qochuvchini tutishni kafolatlaydi.

$GGr$-qochish o‘yinida $\mathbf{v}_{GGr}(t) = -\sigma e^{kt}\xi_0,\ t \ge 0$ boshqaruv funksiyaga *qochuvchining strategiyasi* deymiz.

**2-teorema.** $\alpha > \sigma$ va $\left|z_0\right| \le \Theta$ bo‘lsin. U holda, $GGr$-quvish o‘yinida $\mathbf{v}_{GGr}(t)$ strategiya $[0, T_{GGr})$ vaqt oralig‘ida qochishni kafolatlaydi, bu yerda $T_{GGr}$ kafolatlangan quvish vaqti.

**3-teorema.** Quyidagi shartlardan biri o‘rinli bo‘lsin: 1) $\alpha \le \sigma$; 2) $\alpha > \sigma, \left|z_0\right| > \Theta$. U holda, $GGr$-qochish o‘yinida $\mathbf{v}_{GGr}(t)$ strategiya $[0,\infty)$ vaqt oralig‘ida qochishni kafolatlaydi va $\left|z(t)\right|$ masofa funksiyasi uchun quyidagi baholash o‘rinli: $\left|z(t)\right| \ge \left|z_0\right| + \frac{\sigma}{k}(e^{kt} - 1) - \alpha t$.

**8-ta’rif.** Agar $\rho \ge \beta$ bo‘lsa, $\mathbf{u}_{GrG}(t,v) = v - \lambda_{GrG}(t,v)\xi_0$ funksiya $GrG$-quvish o‘yinida quvlovchining $\Pi_{GrG}$-*strategiyasi* deyiladi, bu yerda

$$\lambda_{GrG}(t,v) = \langle v, \xi_0\rangle + \sqrt{\langle v, \xi_0\rangle^2 + \rho^2 e^{2kt} - |\,v\,|^2},\ \xi_0 = z_0 / \left|z_0\right|.$$

**4-teorema.** Agar $\rho \geq \beta$ shart bajarilsa, u holda, $GrG$-quvish o'yinida $\Pi_{GrG}$-strategiya $[0, T_{GrG}]$ oraliqda tutishni amalga oshirishni kafolatlaydi, bu yerda $T_{GrG}$ ushbu $e^{kt} = \frac{k\beta}{\rho}t + 1 + \frac{|z_0|k}{\rho}$ tenglamaning birinchi musbat ildizi.

**5-teorema.** Agar $\rho \geq \beta$ bo'lsa, u holda, quvlovchining ixtiyoriy boshqaruvi uchun qochuvchining $\mathbf{v}_{GrG}(t) = -\beta\xi_0$ strategiyasi $[0, T_{GrG})$ vaqt oralig'ida $x(t) \neq y(t)$ tengsizlikni kafolatlaydi.

**9-ta'rif.** Agar $\rho < \beta$ bo'lsa, quvlovchining $\Pi^*_{GrG}$-*strategiyasi* deb, ushbu

$$\mathbf{u}^*_{GrG}(t,v) = \begin{cases} 0, & \text{agar} \quad 0 \leq t < t^*, \\ v - \lambda^*_{GrG}(t,v)\xi^*_0, & \text{agar} \quad t \geq t^*, \end{cases}$$

funksiyaga aytamiz, bu yerda $\lambda^*_{GrG}(t,v) = \langle v, \xi^*_0 \rangle + \sqrt{\langle v, \xi^*_0 \rangle^2 + \rho^2 e^{2kt} - |v|^2}$,

$\xi^*_0 = z^*_0 / |z^*_0|$, $z^*_0 = x_0 - y(t^*)$, $t^* = \frac{1}{k} ln \frac{\beta}{\rho}$.

**6-teorema.** $\rho < \beta$ bo'lsin. U holda, $GrG$-quvish o'yinida quvlovchi $\Pi^*_{GrG}$-strategiya yordamida $[0, T^{**}_{GrG}]$ vaqt oralig'ida yutadi, bu yerda $T^{**}_{GrG} = t^* + T^*_{GrG}$ va $T^*_{GrG}$ ushbu $e^{kt} = \frac{k\beta}{\rho}t + \frac{\beta}{\rho} + \frac{|z_0|k}{\rho}$ tenglamaning birinchi musbat ildizi.

**7-teorema.** Agar $\rho < \beta$ bo'lsa, u holda, quvlovchining ixtiyoriy boshqaruvi uchun qochuvchining $\mathbf{v}^*(t) = -\beta\xi^*_0$ strategiyasi $[t^*, T^*_{GrG})$ vaqt oralig'ida $x(t) \neq y(t)$ tengsizlikni kafolatlaydi.

**10-ta'rif.** $\mathbf{u}_{IGr}(v,t) = v - \lambda_{IGr}(v,t)\xi_0$ boshqaruv $IGr$-quvish o'yinida $\Pi_{IGr}$-*strategiya* deb ataladi, bu yerda

$$\lambda_{IGr}(v,t) = \langle v, \xi_0 \rangle + \frac{\mu(t)}{2} + \sqrt{\left(\langle v, \xi_0 \rangle + \frac{\mu(t)}{2}\right)^2 - |v|^2},\ \xi_0 = z_0 / |z_0|,\ \mu(t) = \frac{\rho_0 e^{kt}}{|z_0|}.$$

**8-teorema.** $\rho_0 \geq 4\sigma |z_0|$ bo'lsin. U holda, $\Pi_{IGr}$-strategiya $[0, T_{IGr}]$ vaqt oralig'ida quvlovchining yutishini kafolatlaydi, bu yerda

$$T_{IGr} = \begin{cases} \frac{1}{k}\ln(\frac{k|z_0|}{\vartheta_0} + 1), & \text{agar} \quad k > 0, \\ \frac{|z_0|}{\vartheta_0}, & \text{agar} \quad k = 0, \end{cases} \qquad \vartheta_0 = \frac{\rho_0}{2|z_0|} - \sigma + \sqrt{\frac{\rho_0^2}{4|z_0|^2} - \frac{\rho_0\sigma}{|z_0|}}.$$

**3-lemma.** $\min\left(|z_0|,\dfrac{\sigma}{k}\right) > \sqrt{\dfrac{\rho_0}{ek}}$ bo‘lsin. U holda, barcha $t \in [0,\infty)$ uchun $\dfrac{\sigma}{k}e^{kt} - \sqrt{\rho_0}te^{\frac{kt}{2}} + |z_0| - \dfrac{\sigma}{k} > 0$ o‘rinli.

Qochuvchi uchun $\mathbf{v}_{IGr}(t) = -\sigma e^{kt}\xi_0$, $t \geq 0$, boshqaruvni taklif qilaylik.

**9-teorema.** $\min\left(|z_0|,\dfrac{\sigma}{k}\right) > \sqrt{\dfrac{\rho_0}{ek}}$ bo‘lsin. U holda, $\mathbf{v}_{IGr}(t)$ boshqaruv barcha $t \in [0,\infty)$ uchun qochuvchining yutishini kafolatlaydi.

$P_{IGr}(x,y,\rho)$ biror $x$ holatdan boshlab harakatlanadigan va $\rho$ resursni sarflaydigan quvlovchining biror $y$ holatdan boshlab harakatlanadigan qochuvchi bilan to‘qnashadigan barcha $p$ nuqtalar to‘plami bo‘lsin, ya’ni $P_{IGr}(x,y,\rho) = \left\{p : |p-x|^2 \geq \dfrac{\rho}{\sigma}|p-y|\right\}$ va bu to‘plamning $\rho \neq \sigma$ uchun chegarasi $\partial P_{IGr}(x,y,\rho) = \left\{p : |p-x|^2 = \dfrac{\rho}{\sigma}|p-y|\right\}$ ko‘rinishda bo‘ladi.

$P^*_{IGr}\left(x(t),y(t),\rho(t)\right) = \left\{p : |p-x(t)|^2 \geq \dfrac{\rho_0\Lambda_{IGr}(v(\cdot),t)}{\sigma}|p-y(t)|\right\}$ bo‘lsin.

**10-teorema.** $P^*_{IGr}\left(x(t),y(t),\rho(t)\right)$ ko‘p qiymatli akslantirish $t \in [0,\tau]$ ga nisbatan monoton kamayuvchidir, bu yerda $\tau \in \left[0,T_{IGr}\right]$, ya’ni agar $t_1,t_2 \in [0,\tau]$ va $t_1 < t_2$ bo‘lsa, u holda, $P^*_{IGr}\left(x(t_2),y(t_2),\rho(t_2)\right) \subset P^*_{IGr}\left(x(t_1),y(t_1),\rho(t_1)\right)$ o‘rinli.

**11-ta’rif.** $\rho_0 \geq 4\sigma|z_0|$ uchun $P_{IGr}(x_0,y_0,\rho_0)$ to‘plam $IGr$-quvish o‘yinida *obyektlarning yetishish sohasi* deyiladi.

**11-teorema.** Agar $\rho_0 \geq 4\sigma|z_0|$ bo‘lsa, u holda, $IGr$-quvish o‘yinida qochuvchi $P_{IGr}(x_0,y_0,\rho_0)$ yetishish sohasidan chiqib keta olmaydi.

II-bob “**Chiziqsiz $I-$chegaralanishlarga ega hol uchun $\Pi-$strategiya**” deb nomlanib, o‘yinchilarning sodda harakatlari bilan tasvirlangan quvish-qochish differensial o‘yinlarni yechishga qaratilgan va bunda asosiy jihatlardan biri muayyan ma’noda o‘yinchilar tezliklarining energiya sarflari uchun cheklovlarni ifodalaydigan ikkita tipdagi nostatsionar integral chegaralanishlardir.

$\mathbb{R}^n$ fazoda mos ravishda holatlari $x$ va $y$ bilan ifodalanadigan va harakatlari (1) dinamika orqali sodir bo‘ladigan ikkita boshqariladigan $P$ va $E$ o‘yinchilarga ega differensial o‘yinni ko‘rib chiqamiz.

1) Keyingi o‘rinlarda, quyidagi

$$\int_0^t |u(s)|^2\, ds \leq t\rho_1^2,\ \ \rho_1 > 0,\ \ t \geq 0, \tag{10}$$

$$\int_0^t |v(s)|^2\, ds \le t\sigma_1^2,\ \ \sigma_1 > 0,\ \ t \ge 0, \tag{11}$$

shartlarni qanoaltantiruvchi barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sinflari mos ravishda $U_G^{gen}$ va $V_G^{gen}$ bilan tasvirlanadi, bu yerda $U_G^{gen}, V_G^{gen} \subset L_\infty[0,+\infty)$, va $gen$ esa inglizcha “general” so‘zining qisqartmasidir hamda (10) (yoki (11)) ko‘rinishdagi integral tengsizlik *geometrik chegaralanish* (qisqacha, $G^{gen}$-*chegaralanish*) deb ataladi.

2) (10)–(11) larning umumiyroq ko‘rinishi sifatida, quyidagi

$$\int_0^t |u(s)|^2\, ds \le \rho_1^2 t + \rho_0^2,\ \ \rho_0 \ge 0,\ \ \rho_1 \ge 0,\ \ t \ge 0, \tag{12}$$

$$\int_0^t |v(s)|^2\, ds \le \sigma_1^2 t + \sigma_0^2,\ \ \sigma_0 \ge 0,\ \ \sigma_1 \ge 0,\ \ t \ge 0, \tag{13}$$

shartlarni qanoaltantiruvchi barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sinflari mos ravishda $U_L$ va $V_L$ bilan tasvirlanadi va shuningdek, (12) (yoki (13)) ko‘rinishdagi integral tengsizlik *chiziqli chegaralanish* (qisqacha, $L$-*chegaralanish*) deb ataladi.

3) (10)–(11) larning umumlashgan ko‘rinishi sifatida, quyidagi

$$\int_0^t |u(s)|^2\, ds \le \frac{\rho_1^2}{2k}\left(1 - e^{-2kt}\right),\ \ \rho_1 > 0,\ \ k > 0,\ \ t \ge 0, \tag{14}$$

$$\int_0^t |v(s)|^2\, ds \le \frac{\sigma_1^2}{2k}\left(1 - e^{-2kt}\right),\ \ \sigma_1 > 0,\ \ k > 0,\ \ t \ge 0, \tag{15}$$

shartlar o‘rinli bo‘ladigan barcha $u(\cdot)$ va $v(\cdot)$ o‘lchovli funksiyalar sinflarini keltiramiz va bu boshqaruv sinflarini mos ravishda $U_{\exp}$ va $V_{\exp}$ bilan tasvirlaymiz hamda (14) (yoki (15)) ko‘rinishidagi integral tengsizlikni *noldan eksponensial chegaralanish* (qisqacha, $I_{\exp}$-*chegaralanish*) deb ataymiz.

